

1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar” kuni bilan chin dildan qutlayman

“Agar shogird shayxulislom, agar qozidur,
Agar ustoz rozi – Tangri rozidur”, deydi Alisher Navoiy hazratlari.



Haqiqatan ham, ko‘z nuri va qalb qo‘rini, butun ongli hayotini yosh avlodga bilim va tarbiya berishga, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga bag‘ishlagan, bir so‘z bilan aytganda, Vatanimiz ertangi kunining poydevorini yaratayotgan ustozlarning olijanob mehnatiga har qancha tahsin aytsek oz.

Aziz hamkasblar, zahmatkash ustozlar, qadri baland ziyolilar! Siz yelkangizga millat ertasini qurish - yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishdek vazifa olgan kelajak bunyodkorsiz.

Shu munosabat bilan barchangizni 1-oktabr “O‘qituvchi va murabbiylar” kuni bilan chin dildan qutlayman, Barchangizga kasb bayrami muborak bo‘lsin, azizlar!

SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati